



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

АСТА NUUz

МИРЗО УЛУГ'БЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2021
1/5/2**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

И.У.МАДЖИДОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Р.Х.ШИРИНОВА – ф.ф.д., профессор

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Ҳ. – т.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д, проф.

Туйчиев Б.Т. – ф.ф.д, проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Х. – фил.ф.д., проф.

Раҳмонов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Жабборов Н.А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Ширинова Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Садуллаева Н.А. – фил.ф.д., доц.

Арустамян Я.Ю. – фил.ф.д., доц.

Пардаев З.А. – фил.ф.ф.д., PhD.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2021

МУНДАРИЖА

Тарих

Абдуллаев Д. Мукофотлаш тизими: мазмун-моҳияти ва функциялари таҳлили.....	4
Джураева С. Сурхондарё вилоятидаги Термиз саййидлари номи билан боғлиқ Султон Саодат зиёратгоҳи.....	7
Kamolova N. Xiva xonligi davri qishloq xo'jaligi ishlari va mehnat qurollari.....	10
Маллабаев Б. Туркистон генерал-губернаторлиги қошида дипломатик корпуси ташкил этилишининг тарихий-сиёсий омиллари.....	13
Нарзуллаев У. Қизилқумда тоғ-кон саноатининг ривожланиши.....	17
Сайфуллаев Н. “Қайта қуриш” даврида театр жамоаларидаги зиддиятлар ва театр-студияларнинг вужудга келиши.....	20
Ўринбоев З. «Smart» тушунчасининг келиб чиқиш тарихи.....	23
Халилова З. Гуманитарные науки в средних специальных исламских учебных заведениях Узбекистана: межрелигиозная терпимость и вопросы светскости в образовании.....	26
Холиқулов Ш. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон ўлкасида нотариал идоралар фаолияти тарихидан (Самарқанд вилояти мисолида).....	29

Фалсафа

Абдуллаева Д. Шахса диний йўналганлик муаммосининг илмий-назарий асослари.....	33
Абдулҳакимов Б. Роль развития цифровых технологий в социально-политической трансформации общества.....	37
Абдурахмонов У. Соғлом социал рақобатни ёшларнинг ижтимоий-маданий фаолиятларининг шаклланишидаги ўрни.....	41
Абдурахмонова И. Иқтидорли ўқувчилар ва уларда иқтидор элементларининг ривожланганлик даражасини ўрганиш.....	44
Adilov N. Masofaviy o'qitish davrida talabalarining jismoniy tarbiyasi.....	47
Акратова Ф. Кексаларни ҳимоя қилиш хориж тажрибасида.....	50
Алижонов Г. XIX аср охири XX аср бошларида Ризоуддин ибн Фаҳриддин дунёқараши шаклланишининг назарий асослари.....	54
Арипов Н. Информатика фанини ўқитишда ҳамкорликдаги таълим технологиялари.....	57
Атамуратов М. Ўзбекистонда бошқарув кадрларига хос бўлган компетенция стандартлари.....	60
Бегматов М. Миграциянинг оилага салбий ва ижобий таъсирлари.....	65
Бердиев Х. Соҳибқирон Амир Темурнинг стратегия ва ҳарбий тактикаси ҳақида.....	69
Botirova S. Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning metodologik aspektlari.....	74
Давқаров А., Собитов О., Саидова З. Ўзбекистонда эркаклар ва аёллар тенг ҳуқуқлигини ва тенг имкониятли муносабатларини таъминлаш тўғрисида давлат томонидан кўрилатган чора-тадбирлар ҳамда ижтимоий-иқтисодий ҳолатини тавсифловчи нашрлар ва уларни такомиллаштириш.....	78
Даминова Ю. Профессионал таълим муассасаларида ёш ўқитувчиларнинг касбий мослашувчанлиги модели.....	81
Diyorov S. Conflicts – types and characteristics of them.....	85
Jakbarova Z. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari.....	90
Ibroximov S. Глобаллашув замонавий дунё ривожланишининг асоси сифатида.....	93
Isakova Z. The problem of karamat in the teaching of sufism: philosophical and epistemological interpretation.....	96
Kadirova M. Talabalarda iqtisodiy ko'nikmalarni takomillashtirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.....	100
Курбонова Г. Мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчилари ўртасидаги гендер муносабатларига оид тадқиқотлар таҳлили.....	104
Mamasoliyev S. Zararli odatlarning talabalar salomatligiga salbiy ta'siri.....	107
Омонов Б. Экологик муаммолар глобаллашуви ва унинг инсоният тақдирига таъсири.....	110
Очилова В. Метакогнициянинг назарий асослари.....	114
Рамазанов А. Дунёнинг илмий манзараси илмий билимларнинг умумлашган системаси сифатида.....	117
Раҳмонова Г. Масофавий таълимнинг ўқитувчилар малака ошириш жараёнидаги аҳамияти.....	120
Rashidova G. Talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish modeli.....	123
Seytimbetova G. Intellect-xaritalari asosida o'quv materiallarini ishlab chiqish (nofizik bakalavriat mutaxassisligida fizika fanini o'qitish misolida).....	127
Сиддиқов И. Ислол фалсафасида интеллектуал фаолият мезонларига доир қарашлар.....	131
Тангирова Г. К вопросу об исследовании конвергенции и национальной специфики жанра рассказа в русской и узбекской литературах.....	135
Tashtayev Sh. Talabalarining ta'limida jismoniy tarbiyaning ahamiyati.....	137
Темиров Ш. Мактабгача ва кичик мактаб Yoshidagi bolalar bilan maxsus jismoniy tarbiya dasturi asosida shug'ullanishning samaradorligi.....	140
Тожибоев Ж. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланишида стратификация омили.....	143
Тошбоева Н. Геометрик масалалар ёрдамида ижодий қобилиятни ривожлантириш.....	148
Улугов А. Бағрикенглик маданияти ва унинг Абу Ҳанифа қарашларида намоён бўлиши.....	151
Умиров Б. Амалий дастурлар пакети курсини шахсга йўналтирилган таълим технологиялари орқали ўқитиш.....	155
Хайтова Н. Бошланғич синф ўқувчилари мотивациясини геймификация орқали ривожлантириш.....	158
Хакимов Д. Ахборотлашган жамиятда ёшлар маънавий-ахлоқий бегоналашуви ва уни бартараф этишнинг устувор йўналишлари.....	161
Ходжаёрова Б. Креатив ёндашув асосида ўқувчиларни ижтимоийлаштиришнинг педагогик шарт-шароитлари (5-6 синф ўқувчилари мисолида).....	164
Худайберганов Я. Талоқ шаръий ҳукмларининг оилани сақлаб қолишга мойил психологик хусусиятлари.....	168
Xudoyberganov Z. O'zbekiston Respublikasida koronavirus Covid-19 pandemiyasining jismoniy faollikka ta'siri.....	172
Homidov H. The role of pedagogical sciences in education of the young generation on the basis of patriotism.....	175
Shokirov P. Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya darslarida o'qitishda innovatsion yondashuvlarni izlash va ulardan foydalanish.....	178
Ergashov Y., Nasrullayev T. Zamonaviy axborot texnologiyalarining jamiyat va ta'lim tizimidagi o'rni.....	181
Эрназаров Ш. Миллий ғоя тарихини ўрганишда тарихий онг ва тафаккур омили.....	184
Юсупов Э. Физика фанини ўқитишда smart-технологиялардан фойдаланишнинг амалиётдаги ҳолати.....	188

Филология

Abduraxmonova N. O'zbek tili elektron korpusining lingvistik va dasturiy ta'minoti.....	190
Алиқулова Д. Фразеологик маънонинг эмотив компоненти.....	195
Andaniyazova G. Badiiy matnni shakllantiruvchi ekspressiv sintaktik konstruksiyalar (Sharof Boshbekov asarlari misolida).....	199
Arolov Z. Role of short humorous poems in different cultural backgrounds.....	202
Akhmedova Z. The role of emotive-evaluative vocabulary in the creation of an artistic picture of the world.....	207
Бахтиёрва М. Ономастик рамзларнинг турли жанрдаги матнларда намоён бўлиши.....	210
Баҳриева М. Телевиденида нотиқлик санъатининг ўрни.....	214
Бегматова Р. Қардош бўлмаган тилларда юктамаларнинг прагматик ва лингвомаданий таҳлили (немис ва ўзбек тиллари мисолида).....	217
Буранова Ж. Разработка мифологизма в узбекском литературоведении.....	221
Ismoilov I. Alisher Navoiy Iskandarning nasabi haqida.....	224
Каримов У. Адиб бадий оламининг шаклланиш омиллари: грэм грин мисолида.....	228
Кубединова Э. Специфика аудирования, говорения, чтения в процессе обучения устному переводу.....	232
Муртазаев Э. Ўзбек насрида уруш оқибатлари ва инсон қисматининг бадий ифодаси.....	235
Набиева М. Терминларнинг формал-грамматик хусусиятлари ҳақида.....	239
Назарова А. XX асрда дарийзабон шеърятнинг Афғонистонда ўрганилиши.....	243
Насруллоева Н. Инглиз компьютер ва интернет жаргонларининг шаклланиш тараққиёти.....	247
Nizomova M. Termin tushunchasi va uning pedagogikaga sohasidagi ko'rinishi.....	250
Отақулов Н. Француз, ўзбек ва рус тилларида субколлоквиал мезуратив фразеологизмлар хусусиятлари.....	253
Очилова Н. Адабиётшуносликда от образининг ўрганилиши ва унинг генетик асослари.....	257
Rasulova I. Nutq jarayonida til aloqalarining namoyon bo'lishi va jamoaviy interferensiyani so'rovnoma orqali aniqlash.....	261
Rejarov I. National and linguocultural specifics of phraseological units in Uzbek and English.....	264
Суярова Н. Метафорик маънони концептуал ўрганиш асослари.....	267
Tojiboyeva M., Madaminova M. "Tarixi Farg'ona" asarida mumtoz nasr an'analari.....	271
Тураходжаева М. Ўсимликшунослик лексемаларининг лексикографик манбаларда берилиши тамойиллари.....	275
Umarova N. Idiomatic qo'shma so'zlarning idiomatik va motivatsiyalashganlik darajalarini aniqlash tahlili.....	279
Uralov A. Nomutanosiblik atamasi va uning talqinlari.....	283
Хабибуллаева Ф. Скрытые пласты внутреннего мира героя в художественном переводе.....	287
Хасанова Ф., Анорбоева М. Инглиз тилида дуо нутқий жанрининг лингвистик хусусиятлари ва таснифи масаласи.....	290
Холмирзаева Д. Отражение особенностей времени в комедии.....	293
Xonnazarov E. Jahon tilshunosligida zamon kategoriyasining o'rganilishi.....	296
Xaitov X. O'zbek shevashunosligi sohasida dialektal so'z maqomi masalasi.....	300
Shukurova S. "Javohir" va "Momo qo'shiq" qissalarida inson konsepsiyasi.....	304
Эшмуродова З. Ўзбек ва француз фольклор аъналариди кийим-кечаклар билан боғлиқ этнографизмлар.....	310
Юсупова Қ. Хемингуэй асарларида сув образи талқини.....	314



UDK: 37.015.6(075)

Maraljan KADIROVA,
BuxDU tayanch doktranti,
E-mail: durdiev65@mail.ru

BuxDU professori, p.f.d., Olimov Sh. Sh. taqrizi asosida.

TO IMPROVE ECONOMIC MODULES IN STUDENTS TO USE TECHNOLOGYS IN EDUCATION SYSTEM

Annotation

In order to improve the educational system of the republic and the teaching process in it, the reforms in the field of education of developed countries are analyzed, and accordingly, targeted works are being done to modernize the education system and achieve its goals and objectives. This article provides information about the components of e-learning modules: syllabus, presentations about the importance of cases and extra learning materials in the creation of e-learning modules and develops recommendations about their use. Taking an example, the parts of the syllabus on the subject of "Economic Theory" are provided. At present, the creation of electronic modules of learning subjects by all departments in higher education not only serves to improve the quality of the educational process, but allows to effectively prepare the intellectually-gifted young generation for work in all spheres of society.

Key words: syllabus, module, case-study, e-complex, e-learning modules.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В целях совершенствования системы образования республики и учебного процесса в ней, анализируются реформы в сфере образования развитых стран, проводится модернизация системы образования для достижения поставленных целей и задач. В этой статье представлена информация о компонентах модулей электронного обучения: слайбус, презентации, важность кейсов и дополнительных учебных материалов при создании модулей электронного обучения, а также даны рекомендации по их использованию. Например, есть разделы, которые должны быть включены в программу по предмету «Экономическая теория». В настоящее время создание электронных модулей учебных дисциплин всеми факультетами высшего образования не только служит повышению качества учебного процесса, но и позволяет эффективно подготовить молодое поколение с интеллектуальным потенциалом к работе во всех сферах жизни общества.

Ключевые слова: Syllabus, технологизация, модуль, кейс-стади тематическое исследование, электронный комплекс, модули электронного обучения.

TALABALARDA IQTISODIY KO'NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Аннотация

Respublika ta'lim tizimi va undagi o'qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'nalishida maqsadli ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada elektron o'quv modullarning tarkibiy qismlari: sillabus, taqdimotlar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib elektron o'quv modullarini yaratishda keys hamda qo'shimcha o'quv materiallarining ahamiyati ko'rsatilgan va ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Misol tariqasida "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha sillabus mazmunidan o'rin olishi lozim bo'lgan qismlarni keltirilgan. Hozirda, oliy ta'lim tizimidagi barcha kafedralar tomonidan o'quv fanlarining elektron modullari yaratilishi, nafaqat o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga xizmat qiladi, balki intellektual salohiyatli, yosh avlodni jamiyatimizning barcha sohalaridagi faoliyatga samarali tayyorlash imkoniyatini berishi shubhasizdir.

Kalit so'zlar: Sillabus, texnologizatsiyalash, modul, keys-stadi, elektron majmua, elektron o'quv modullari.

Kirish. Hozirgi kundagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlarida, balki madaniy, ijtimoiy - gumanitar, ta'lim sohalarida ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu ma'noda yangi O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilm-fani, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim-tarbiya tizimini, shuningdek, milliy pedagogika va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning nazariy va metodik asoslarini yaratish, amaliyotga tatbiq etish zaruriyati, milliy ta'lim tizimini isloh qilish, uning salohiyatini jahon miqyosiga

olib chiqish, ta'lim bozorini yaratish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifasidan kelib chiqadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot aksariyat ishlab chiqarish sohasini texnologiyalash tiribgina qolmay, balki u madaniyat, ta'lim sohalariga ham kirib bormoqda. Texnologizatsiyalash - bu obyektiv jarayon bo'lib, ta'lim evolutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davri hisoblanadi [3]. Hozirgi kunda chet el davlatlarida talabalarining mustaqil o'z ustida ishlashi uchun mustaqil ta'limni qo'llab quvvatlovchi ta'lim tizimini boshqarish tizimlari qo'llanilmoqda. Shu jumladan bizning davlatimizda ham bu kabi ishlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchi-talabalarga insoniyat tarixi davomida yaratilgan bilimlarni yetkazish, fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari uchun tegishli sharoit yaratish, zarur axborotlarni tanlash va mustaqil o'qishni o'rgatish orqali bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va qiziqishlarini orttirishdan iborat. Bu vazifalarni an'anaviy ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda hal etib bo'lmaydi, shu sababli ta'lim-tarbiya jarayonida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash zarurati vujudga keladi [1]. Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. "Modul" lotincha so'z bo'lib "qism" yoki "bo'lak" ("blok") degan ma'noni bildiradi. Demak, modul – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi, tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo'laklar, ya'ni modullar eng kichik bo'laklardan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo'lakni eng kichik modul, boshqalarini esa o'z ichiga qancha modulni olishiga qarab tegishli darajadagi modullar deyiladi [2].

Modulli ta'limning mohiyati shundaki, talaba modul bilan ishlash jarayonida muayyan o'quv-biluv faoliyati Fanning qisqacha tavsifi:

1-jadval

Fan/Modul kodi	O'quv yili 2021-2022	Semestr 3	ECTS-Kreditlar
Fan/Modul kodi	Ta'lim tili O'zbek, rus		Haftadagi dars soatlari 6
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Iqtisodiyot nazariyasi	90	120	210

Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni: fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga iqtisodiy bilimlarning nazariy va amaliy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, iqtisodiy qonunlar va tamoyillarini o'rganish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, iqtisodiy mushohada qilish usullari bilan qurollantirish; iqtisodiy hodisa va jarayonlar mazmunini mantiqiy mushohada qilish uchun zarur bo'lgan uslubiy yondashuvlarni egallashga ko'maklashish; hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirishning dolzarb muammolarni ochib berish; iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar to'g'risidagi amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

Mashg'ulotlarni o'tkazish vaqti va joyi: O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida, BuxDUning o'quv binolarida. Kursning boshlanishi va davom etish muddati: Ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga muvofiq 2-kurs 3 - semestrda. Individual grafik asosida professor-o'qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti: Haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlari, tushdan so'ng soat 500-1800 gacha. Fanga ajratilgan soatlarning ta'lim shakllariga ko'ra taqsimoti: Auditoriya soatlari jami: 210 soat, ma'ruza: 44 soat, amaliy mashg'ulot: 46 soat, mustaqil ta'lim 120 soat.

Sillabus- har qanday elektron majmua (modul)ning asosini tashkil etuvchi negizi, mantiqiy qurilmasi hisoblanib, qolgan tarkibiy qismlar sillabus mazmunidan kelib chiqib barpo etiladi. Sillabusni tuzishda asosiy e'tibor davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv rejasini, o'quv dasturlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlariga qaratilishi lozim. Hozirgi paytda "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'qitish jarayonida keys texnologiyalarini qo'llashning dolzarbligi quyidagilar bilan bog'langan:

-Ta'limda ustuvor yo'nalishlarning o'zgarishi natijasida oliy ta'lim muassasalarida shablonli o'rganish bilan uning kasbiy kompetensiyasini, fikrlash va amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga, shaxsiy qobiliyatlarini,

maqsadiga erishadi. O'qituvchining vazifasi esa ta'lim jarayonini motivlashtirish, modul orqali talabani o'quv-biluv faoliyatini boshqarish va ularga ko'rsatma berib borish. O'quvchi-talabalar modul dasturi yordamida o'quv materialini mustaqil va ijodiy o'rganish jarayonida mazkur mavzuni o'zlashtirish uchun dasturda belgilangan vaqt doirasida amalga oshirishga erishishlari lozim. Modul dasturining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat bo'ladi: sillabus, tarqatma materiallar, keys-stadi, qo'shimcha o'quv materiallar.

"Sillabus" lotincha "syllabus" so'zidan olingan bo'lib, "katalog, ro'yxat" degan ma'noni anglatadi va muayyan fanning dasturi hisoblanib, tarkiban: fanning qisqacha tavsifi, mazmuni, maqsadi, mashg'ulotlarning mavzulari, professor-o'qituvchining talaba uchun maslahat vaqtlari, o'zaro hamkorlik va muloqot qoidalari, baholash mezonlari kabi qismlardan iborat bo'ladi.

Misol tariqasida "Iqtisodiyot nazariyasi" fani bo'yicha sillabus mazmunidan o'rin olishi lozim bo'lgan qismlarni keltiramiz:

birinchi navbatda, o'rganish qobiliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan, dinamizm, noaniqlik, va ma'lumotlarning ko'pligi bilan ajralib turadigan zamonaviy axborot muhitining paydo bo'lishi;

-Iqtisodiy bilimlarni o'rganish sharoitlarida asosiy kasbiy kompetensiyalar va ta'lim sifatini shakllantirishga bo'lgan talablarning dolzarb masalaga aylanishi, ta'lim oluvchilarning har xil vaziyatlarda tizimli va samarali harakatlari bo'yicha qobiliyatlarining o'sishi.

Tarqatma materiallar - bilimlarni o'zlashtirish yo'nalishida modulning tarkibiy qismi sifatida, tarqatma materiallar o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi vositalar hisoblanadi.

O'quv-uslubiy materiallar (O'UM) - tarqatma materiallarning asosini tashkil etib, o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun taqdimot (prezentatsiya)lar shaklida tuziladi, ular talabalarining mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Taqdimotlar - o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da o'quv materialini mazmunini tashkil etuvchi predmetning mazmuni, shakli, ko'rinishi, tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Taqdimotlar ayni paytda video, audio hamda vizual animatsiyalar shaklida taqdim etiladi. Taqdimot (prezentatsiya) orqali o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o'rganish, zaruriy o'lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o'rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga, bir so'z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Taqdimot samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o'quvchilarning yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlari yo'naltirishiga bog'liqdir [6], [8].

Aslida, taqdimotlar juda murakkab tuzilmasdan, modul tarkibida kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalq'itadi.

Elektron o'quv modullarning tarkibiy qismlari: keys, qo'shimcha o'quv materiallari. Keys stadi (inglizcha "case" - to'plam, aniq vaziyat, "study" - ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzidagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq, real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli - vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir [4].

Keys-stadi - ta'lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan, o'quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan, bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lim texnologiyasidir [5], [7].

U ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870-yilda qo'llanilgan edi. 1920-yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Keysning dasturiy kartasi keys uchun axborot yig'ish va vaziyatni bayon qilish uchun asos bo'ladigan, asosiy masalalar (tezislar)ning tuzilmalangan ro'yxatidan iborat bo'ladi. Keys uchun axborot yig'ish usullari: intervyu, suhbat, o'rganish (arxiv hujjatlari, hisobotlarni), kuzatuv va hokazolardan iborat bo'ladi.

Axborot yig'ish vositalari: so'rovnoma varag'i, intervyu olish varag'i, anketa, har xil jadvallar va boshqalar. Keys uchun axborot yig'ish manbalari tarkibiga: statistik materiallar, hisobotlar, vaziyatning obyekt faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, axborotlar, prospektlar va boshqa ma'lumotlar, internet, ommaviy axborot vositalari, korxonalar, uning ta'minotchilari va iste'molchilari, tarmoqdagi ekspertlar yoki turli investitsion fondlar tahlilchilari bilan muloqot, talabalarning o'quv va diplom loyihalari, magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar, monografiyalari, korxonalar rahbarlari bilan intervyular kiradi. Keysning mantiqiy tuzilishi va aniq faoliyatga yo'naltirilishi maxsus tayyorlikka ega keysolog faoliyatining izchilligiga bog'liq bo'ladi.

Keysolog o'z navbatida quyidagi qarorlarni qabul qiladi:

- Keys qanday bo'ladi: syujetli yoki syujetsiz?

- Keysdagi voqealar axborotni bayon qilishning vaqtidagi izchilligi bo'yicha o'tmishdan hozirga keladigan yoki keys-xotira yoxud prognostik bo'ladimi?

- Vaziyatga oid mashq qanday janrda bayon qilinadi: hikoya yoki esse yoxud tahliliy yozishma yoki boshqacha shaklda?

- Keys o'z hajmiga ko'ra qisqa yoki o'rtacha miqdorda yoxud katta bo'ladimi?

- Keysda muammo qanday usulda beriladi?

- Keys tuzilmasi bo'yicha qanday bo'ladi?

Keysolog qabul qilingan yechim asosida vaziyat modelini quradi. Keysdagi vaziyat modeli vaziyat subyekt faoliyatining ideal in'ikosidan iborat bo'ladi va ifodalangan muammo tashuvchisi rolini bajaradi.

Keys tuzilmasi. Kirish, keys obyektining bayoni, vaziyat, obyektning muayyan vaqt davomidagi bayoni, muhokama uchun va keysga doir savollardan iborat bo'ladi.

Keysning kirish qismi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- keysning dolzarbligini asoslab berish;

- uning ta'lim maqsadi;

- keys yechish natijasida talabalar erishishi mumkin bo'lgan o'quv natijalari.

Keys obyektining tarixiy bayoni katta (amerikacha, uzun) keyslarda doim bo'ladi. Taqdim etilgan axborot muammoning retrospektiv tahlilini o'tkazish, uning sabablari va rivojlanish tendentsiyalarini belgilashga imkon beradi.

Keysda bayon qilingan vaziyat: vaziyatli mashqlar, turli personajlar o'rtasidagi suhbatlarni o'z ichiga olishi mumkin, talabalar-keysdan foydalanuvchilarning vaziyatning realligini his etishiga yordam beradigan boshqa publitsistik usullar va vositalar ham ishlatiladi. Vaziyatning keysdagi bayoni va uning axborot ta'minoti quyidagilarga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

- hajmiga ko'ra: bir necha jumladan tortib, to yuzlab sahifali matngacha;

- detallashtirish darajasi va axborotga boyligiga ko'ra: tahlil predmetiga bevosita tegishli bo'lmagan axborotning mavjud bo'lishi yoki, aksincha, vaziyat elementlaridan biri haqidagi axborotning bo'lmasligi ham mumkin.

Muhokama uchun savollar va keysga vazifalar. Agar keys savolli toifasiga tegishli bo'lsa, unda bayon qilingan vaziyat oxirida muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechish jarayonida muhokama qilish uchun bir nechta savollar keltiriladi.

Agar keys-topshiriq bo'lsa, muammoli maydon shakllantirilgandan keyin "Kirish" qismida keys yechish jarayonida talabalar tomonidan bajariladigan vazifa beriladi.

2-jadval

Keysning pedagogik pasporti

No	Keysning pedagogik pasporti
1	pedagogik annotatsiya
2	talabaga uslubiy ko'rsatmalar
3	ta'lim texnologiyasi
4	keysning tekshirilishi va baholanishi

Pedagogik annotatsiya quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Keys mo'ljallangan predmet, bo'lim, mavzu, ta'lim darajasi, kurs ko'rsatiladi.

2. Keysdan ko'zlangan maqsad (ta'limiy maqsad, rejalashtiriladigan o'quv natijalari).

3. Talabalar keysni muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan dastlabki bilim va malakalar.

4. Keys real institutsional tizim faoliyatini aks ettirishi yoki unda keysolog sun'iy modellashtirgan vaziyat bayon qilinishi haqidagi ma'lumot.

5. Axborot olish manbalari ro'yxati.

6. Keysning o'ziga xos belgilariga ko'ra tavsifnomasi (syujet, keys obyekt mavjudligi, materialni taqdim etish usuli, hajmi, tuzilmaviy o'ziga xos xususiyatlari, o'quv topshirig'ini taqdim etish usuli, chizmalashtirish usuli).

7. Keysdan ko'zlangan maqsad tegishlicha, tashkiliy-uslubiy ta'minoti o'zgarganida u qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'quv predmetlari ro'yxati.

Talabaga uslubiy ko'rsatmalar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- muammo va kichik muammolar ifodasi;

- muammo yechimi algoritmi;
- vaziyatni tahlil etish va hal etish;
- baholash mezonlari va ko'rsatkichlari;
- o'quv uslubiy materiallar.

O'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: ta'lim texnologiyasining modeli; o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi; texnologik xaritaga ilovalar.

Keysning tekshirilishi va baholanishi.

Yaratilgan keys ekspert tekshiruvdan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

1. Keys loyhasining korxonada xodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o'qituvchi-keysologning keysning ta'limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning 2-usulidir.

Elektron majmua uchun qo'shimcha o'quv materiallari: o'zlashtirilgan o'quv materiallarini mustahkamlash uchun topshiriqlar, mashqlar, testlar, grafik organayzerlar, chizma-sxemalar, model, diagrammalarlar shaklida tuziladi, ular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

O'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik jarayonida quyidagilarni ishlab chiqish va talabalarga taklif etish maqsadga muvofiqdir:

- talabalar bilimlarini qat'iy mantiqiy tizimga solish uchun nazariy axborotlarning chizmalar, jadvallar, tuzilmalangan ifodalar shaklidagi qisqacha bayonini o'z ichiga oladigan o'quv materiallari;

- mustaqil va guruhli ishlash jarayonida amaliy vaziyatni tahlil etish va yechishga yoki yechish algoritmgiga doir yo'riqnomalar;

- muammo yechimining ustuvor g'oyasini baholash va tanlash texnikasi bo'yicha yo'riqnomasi;

- o'quv mashg'ulotida talabalarning mazmunli faolligini, keysni yozma yechishni baholash ko'rsatkichlari va mezonlari;

- kichik guruhlarda talabalarni ishlash jarayonini o'zaro baholash matritsasi.

Elektron majmualar tayyorlashda tajribali o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida turli o'quv materiallarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Turli o'quv materiallarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy ta'lim texnologiyalarining yetakchi g'oyalari, ta'lim-tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;

- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri.

Ko'rinib turibdiki, turli o'quv materiallari elektron o'quv majmualarining tarkibiy qismi sifatida talabalarda ularning mustaqil faoliyatini tashkil qilish imkoniyatini berib, bilimlarni mustahkam egallash, mushohada qilish va amalda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Tahlil va natijalar. Modulli ta'lim texnologiyasi yordamida "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rganishda: talabalarda iqtisodiyotni umumiy holda, bozor va raqamli iqtisodiyotni tushunish; iqtisodiy kategoriyalar, hodisalar, jarayonlarning tahlilini amalga oshirish; ilmiy axborotni yig'ish, tavsiv berish, annotatsiya va referatlar tayyorlash; bank soliqqa tortish kabi turli tashkilotlarning oddiyroq hujjatlarini tushunish; iqtisodiyot sohalari o'rtasidagi bo'g'lanishlarni tahlil eta olish; resurslarning cheklanganlik sharoitida ulardan samarali foydalanish va ehtiyojlarni to'laroq qondirish imkoniyatlarini amalda qo'llash orqali iqtisodiy ko'nikmalar hosil qilinadi. Respublika ta'lim tizimi va undagi o'qitish jarayonini takomillashtirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilinib, shunga ko'ra ta'lim tizimini modernizatsiyalash uning maqsad va vazifalarini amalga oshirish yo'nalishida maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Xulosa va takliflar. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan global vazifalarning hal qilinishida yechimini kutayotgan muammolar: ta'limni boshqarish, ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish kabi masalalarni hal qilinishiga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Butun dunyo miqyosida ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohotlarning tahliliga tayanib, ta'lim islohotining global yo'nalishlariga ta'sir etuvchi omillaridan biri zamonaviy va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'limga yangicha usullarni joriy etish hisoblanadi. Ushbu maqolada bayon etilgan elektron o'quv modullari orqali "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rganishda zarur bo'lgan modullarning tarkibiy qismlari: sillabus, taqdimotlar haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, elektron o'quv modullarini yaratishda keyslar hamda qo'shimcha o'quv materiallarining ahamiyati ko'rsatilgan va ularni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ADABIYOTLAR

1. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Т.: ТДПУ, 2003.
2. Голиш Л. Замонавий таълим технологиялари. (Ж.: Халқ таълими, 3-сон, 2000.- 24-31-б.)
3. Исламгулова С.К. Технологизация процесса обучения в школе: теория и опыт. –Алматы. Творческая педагогика. 2003.
4. Изменения в образовательных учреждениях: опыт исследования методом кейс – стадии / под ред Г.Н. Прокументовой.- Томск, 2003.
5. Михайлова, Е. И. Кейс и кейс-метод: общие понятия / Е.И.Михайлова / Маркетинг.- 1999.- №1.
6. Йўлдошев Ж.Ф., Усманов С.А. Педагогик технология асослари. Қўлланма. –Т.: Ўқитувчи. 2004.
7. Ходиев Б.Ю., Голиш Л.В., Рихсимбоев О.К. Кейс-стади-иқтисодий олий ўқув юртидаги замонавий таълим технологияси: Илмий услубий қўлланма/ ТДИУ, 2009
8. Фуломов С., Бегалов Б. Таълим ва ахборот технологиялари. //Иқтисодиёт ва таълим, 2010й, 2-сон.